



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



*2024- yil yanvar-fevral oylari
uchun dastlabki ma'lumot*

NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi:
Tel.: (99879) 223-50-43*



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Navoiy viloyatida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatimizda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-fevral oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 252,2 mln. AQSH dollariga etdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan 146,9 % ni tashkil etdi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-fevral 2024 y., mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **252,2** +46,9 %

(2023- y.: 171,7)



Saldo

2024- y.: **94,2** (2023- y.: 3,9)




Eksport

2024- y.: **173,2** +97,2 %

(2023- y.: 87,8)


TSA'dagi ulushi, %da



Import

2024- y.: **79,0** -5,8 %

(2023- y.: 83,9)













Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 173,2 mln. AQSH dollariga (2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 97,2 % ga ko‘paydi) va import hajmi 79,0 mln. AQSH dollariga (94,2 % ni tashkil etdi) yetdi. Hisobot davrida 94,2 mln. AQSH dollari qiymatida musbat tashqi savdo balansi qayd etildi.



NAVOIY VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-fevral, mln. AQSH dollari)











<p>Fransiya</p> <p>TSA – 137,1</p> <p>Eksport: 136,8 Import: 0,3</p> <p> 54,4 %</p>	<p>Rossiya</p> <p>TSA – 32,0</p> <p>Eksport: 9,7 Import: 22,3</p> <p> 12,7 %</p>	<p>XXR</p> <p>TSA – 24,9</p> <p>Eksport: 1,0 Import: 23,9</p> <p> 9,9 %</p>	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 10,2</p> <p>Eksport: 6,4 Import: 3,8</p> <p> 4,0 %</p>	<p>Qozog‘iston</p> <p>TSA – 8,5</p> <p>Eksport: 1,4 Import: 7,1</p> <p> 3,4 %</p>
<p>Daniya</p> <p>TSA – 5,4</p> <p>Eksport: 4,1 Import: 1,3</p> <p> 2,2 %</p>	<p>Germaniya</p> <p>TSA – 5,2</p> <p>Eksport: - Import: 5,2</p> <p> 2,0 %</p>	<p>Afg‘oniston</p> <p>TSA – 4,3</p> <p>Eksport: 4,3 Import: -</p> <p> 1,7 %</p>	<p>Yaponiya</p> <p>TSA – 3,1</p> <p>Eksport: - Import: 3,1</p> <p> 1,2 %</p>	<p>Qirg‘iz Respublikasi</p> <p>TSA – 2,5</p> <p>Eksport: 2,4 Import: 0,1</p> <p> 1,0 %</p>










Navoiy viloyati jahonning 50 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Fransiyada (54,4 %), Rossiyada (12,7 %), XXRda (9,9 %), Turkiyada (4,0 %) va Qozog‘istonda (3,4 %) qayd etilgan.



NAVOIY VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-fevral, mln. AQSH dollari)


Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
Fransiya	0,6	60,2	137,1
 <i>Eksport</i>	-	60,0	136,8
<i>Import</i>	0,6	0,2	0,3
Rossiya	39,6	23,3	32,0
 <i>Eksport</i>	22,1	8,1	9,7
<i>Import</i>	17,5	15,2	22,3
XXR	28,6	23,7	24,9
 <i>Eksport</i>	0,3	0,4	1,0
<i>Import</i>	28,3	23,3	23,9
Turkiya	7,1	11,4	10,2
 <i>Eksport</i>	4,7	4,6	6,4
<i>Import</i>	2,4	6,8	3,8
Qozog'iston	18,0	13,8	8,5
 <i>Eksport</i>	2,7	2,9	1,4
<i>Import</i>	15,3	10,9	7,1
Daniya	-	1,0	5,4
 <i>Eksport</i>	-	-	4,1
<i>Import</i>	-	1,0	1,3
Germaniya	1,1	1,3	5,2
 <i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	1,1	1,3	5,2
Afg'oniston	2,0	3,7	4,3
 <i>Eksport</i>	2,0	3,7	4,3
<i>Import</i>	-	-	-
Yaponiya	0,4	1,2	3,1
 <i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	0,4	1,2	3,1
Qirg'iz Respublikasi	2,7	3,0	2,5
 <i>Eksport</i>	2,5	2,7	2,4
<i>Import</i>	0,2	0,3	0,1

	Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
	Eron	2,5	0,8	2,4
	<i>Eksport</i>	-	0,5	1,7
	<i>Import</i>	2,5	0,3	0,7
	Koreya Respublikasi	4,5	2,3	2,4
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	4,5	2,3	2,4
	Turkmaniston	2,6	0,5	1,7
	<i>Eksport</i>	1,7	0,5	1,4
	<i>Import</i>	0,9	-	0,3
	Latviya	0,1	-	1,5
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	0,1	-	1,5
	Italiya	0,4	0,1	1,5
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	0,4	0,1	1,5
	Litva	2,0	4,4	0,7
	<i>Eksport</i>	1,4	1,7	0,4
	<i>Import</i>	0,6	2,7	0,3
	Estoniya	-	1,9	0,6
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	-	1,9	0,6
	Chexiya	1,9	2,3	0,5
	<i>Eksport</i>	-	-	0,5
	<i>Import</i>	1,9	2,3	-
	Tojikiston	0,7	0,6	0,4
	<i>Eksport</i>	0,7	0,5	-
	<i>Import</i>	-	0,1	0,4
	Shveysariya	-	0,1	0,2
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	-	0,1	0,2



NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024- yil yanvar-fevral, ming AQSH doll.)*




2023- y.

2024- y.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri 66,9 % ulush bilan 168 579,7 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Uchquduq tumani 0,1 % ulush bilan 234,6 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-fevral, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-fevral oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 18,5 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 8,8 % ga ko'paydi.



Boshqa xorijiy davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yilning yanvar-fevral oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 59,5 % ga ko'paydi va jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 81,5 % ni tashkil etdi.

Navoiy viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-fevral holatiga ko'ra, 46,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 16,8 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 29,9 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.




NAVOIY VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-fevral, ulushi, % da)




Navoiy viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (12,7 %), Qozog'iston (3,4 %) hamda Qirg'iz Respublikasi (1,0 %) davlatlari bilan qayd etildi.

NAVOIY VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-fevral, mln. AQSH dollari)



 Navoiy viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 43,5 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 14,0 mln. AQSH dollari, import hajmi esa 29,5 mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi va Belarus) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



NAVOIY VILOYATINING EKSPORTI

(2024- yil yanvar-fevral)




Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar tomonidan 173,2 mln. AQSH dollari qiymatidagi (2023- yilning mos davriga nisbatan 97,2 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-fevral ulushi % da)



Navoiy viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.




NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (yanvar-fevral, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	87,8	173,2	2,2 m.	197,2	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	6,2	5,2	2,5 m.	84,4	7,0	3,0
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	0,8	2,4	4,6	2,9 m.	0,9	1,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,9	4,2	3,1 m.	2,3 m.	2,1	2,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	0,4	-	-	-	0,2
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	62,6	139,8	22,2 m.	2,2 m.	71,3	80,7
Sanoat tovarlari	13,8	17,6	112,6	127,1	15,7	10,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,2	-	-	-	0,3	-
Turli xil tayyor buyumlar	2,2	3,4	112,6	157,5	2,5	2,0
Xizmatlar	0,1	0,2	12,0	119,7	0,2	0,1

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,9 % ni tashkil etib, ular asosan katta ulush kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (80,7 %), sanoat tovarlari (10,1 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (3,0 %) hissasiga tog'ri kelmoqda.

NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI
(2024- yil yanvar-fevral)

 XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	5203,9	84,4
Sabzavotlar va mevalar	1366,2	56,4
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	3533,4	96,3
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	304,3	-
Ichimliklar va tamaki	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	2420,3	2,9 m.
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	981,8	3,2 m.
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	1328,3	2,7 m.
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	110,2	9,5 m.
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	4219,7	2,3 m.
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	4219,7	2,3 m.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	421,9	-
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	421,9	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	139760,9	2,0 m.
Noorganik kimyo moddalari	137343,3	2,3 m.
Birlamchi shakldagi plastmassalar	0,5	-
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	1990,0	98,2
O'g'itlar	3,7	6,8
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	9,2	-
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	288,7	99,8
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	125,5	4,7 m.


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023-yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	17546,8	127,1
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	13993,2	136,9
Rangli metallar	2527,7	122,2
Cho'yan va po'lat	61,3	52,3
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	883,4	70,3
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	48,6	36,5
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	2,0	39,1
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	30,6	-
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	3434,5	157,5
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	3212,0	164,2
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	222,5	99,2
Xizmatlar	163,0	119,7
Moliyaviy xizmatlar	97,5	106,9
Transport xizmatlari	50,5	2,9 m.
Safarlar	15,0	54,7

Navoiy tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-fevral oylarida MDH mamlakatlariga 16,8 mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning 9,7 % ini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-fevral, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-fevral oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Fransiya, Rossiya, Turkiya, Afg'oniston, Daniya, Qirg'iz Respublikasi va Eron kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 95,6 % ni tashkil etdi.



NAVOIY VILOYATI EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-fevral, % da)






NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-fevral)*

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da	Egallab turgan o'ri
	2023 y.	2024 y.		
Fransiya	59 983,4	136 804,1	2,3 m.	1
Rossiya	8 053,4	9 707,3	120,5	2
Turkiya	4 635,8	6 364,5	137,3	3
Afg'oniston	3 669,9	4 259,6	116,1	4
Daniya	-	4 138,2	-	5
Qirg'iz Respublikasi	2 710,3	2 421,4	89,3	6
Eron	477,7	1 740,6	3,6 m.	7
Qozog'iston	2 902,1	1 435,1	49,5	8
Turkmaniston	484,9	1 361,3	2,8 m.	9
Xitoy Xalq Respublikasi	430,6	1 033,9	2,4 m.	10
Litva	1 648,4	1 016,3	61,7	11
Tojikiston	521,4	733,6	140,7	12
Ukraina	74,8	474,8	6,4 m.	13
Belarus	1 458,0	451,5	31,0	14
AQSh	0,8	412,8	486,1 m.	15
Kanada	-	203,3	-	16
Ozarbayjon	74,1	106,8	144,2	17
Polsha	235,8	99,7	42,3	18
Pokiston	261,8	99,6	38,0	19
BAA	12,6	84,4	6,7 m.	20



NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2024- yil yanvar-fevral, ming AQSH doll.)*



Viloyatning eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri 81,1 % bilan 140 380,9 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Konimex tumani 0,01 % bilan 20,0 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-fevral oylarida 1 646,3 tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 51,5 % ni tashkil etdi.


Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (54,2 %) hamda Xitoy Xalq Respublikasi (22,5 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024- yil yanvar-fevral oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 910,9 ming AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 39,9 % ni tashkil qildi va jami eksportdagi ulushi 0,5 % ni tashkil etdi.







MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-fevral, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)


<p>Pomidor</p> <p>175,0 ming AQSH dollari</p> <p>236,5 tonna</p> <p> 34,6 % ↓</p>	<p>Piyoz</p> <p>132,7 ming AQSH dollari</p> <p>504,8 tonna</p> <p> 2212,4 m. ↑</p>	<p>Uzum</p> <p>140,4 ming AQSH dollari</p> <p>117,0 tonna</p> <p> 17,5 % ↓</p>	<p>Yong'oklar</p> <p>76,2 ming AQSH dollari</p> <p>76,5 tonna</p> <p> 42,0 % ↓</p>
<p>Karam</p> <p>78,9 ming AQSH dollari</p> <p>230,4 tonna</p> <p> 80,2 % ↓</p>	<p>Bodring</p> <p>43,0 ming AQSH dollari</p> <p>56,6 tonna</p> <p> 55,7 % ↓</p>	<p>Sitrus mevalar</p> <p>7,2 ming AQSH dollari</p> <p>6,4 tonna</p> <p> 53,0 % ↓</p>	<p>Loviya</p> <p>99,6 ming AQSH dollari</p> <p>24,9 tonna</p> <p> 34,6 % ↓</p>



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar-fevral)

Davlatlar	Tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Qozog'iston	1019,7	493,8	54,2
 Xitoy Xalq Respublikasi	178,6	205,2	22,5
 Pokiston	24,9	99,6	11,0
 Litva	193,1	46,8	5,1
 Latviya	122,0	38,0	4,2
 Estoniya	108,0	27,5	3,0

* qiymat ifodasidan

 2024- yil yanvar-fevral oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qozog'iston to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 54,2 % ni), bu ko'rsatkich Xitoy Xalq Respublikasiga eksport hajmidan 2,4 barobar ko'p.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan viloyat uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.

To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishini bevosita paxta xomashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.


Xususan, 2024- yil yanvar-fevral oylari yakuni bo'yicha 5 647,6 ming AQSH dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 3,3 % ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 51,5 % ga ko'paydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida kiyim-kechak (56,4 %), sintetik, jut tolalar (10,7 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 10 ta davlatiga eksport qilindi.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-fevral, ming AQSH dollari)




Yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI

(2024- yil yanvar-fevral, ming AQSH doll.)



Xizmatlar eksporti hajmi 163,0 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 0,1 % ini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 119,7 % ni tashkil etdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (59,8 %), transport xizmatlari (31,0 %) va safarlar turizm xizmatlari (9,2 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



NAVOIY VILOYATINING IMPORTI




2024- yilning yanvar-fevral oylarida import hajmi 79,0 mln. AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 94,2 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (39,0 %), sanoat tovarlari (26,5 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (19,6 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-fevral, ulushi, % da)



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-fevral oylarida import qilingan tovarlar hajmi 77,9 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 1,1 mln. AQSH dollariga etdi.



NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-fevral, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	83,9	79,0	99,0	94,2	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	5,0	6,0	140,2	120,5	5,9	7,6
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1,5	1,5	128,8	99,8	1,7	1,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,1	0,1	2,2	131,4	0,1	0,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,5	0,3	5029 m.	22,2	1,8	0,4
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	9,1	15,5	77,4	169,8	10,9	19,6
Sanoat tovarlari	23,9	20,9	121,6	87,4	28,5	26,5
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	36,7	30,8	108,8	84,0	43,7	39,0
Turli xil tayyor buyumlar	3,0	2,8	55,5	91,3	3,7	3,5
Xizmatlar	3,1	1,1	73,2	35,1	3,7	1,4



XSSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-fevral)

XSSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	5 989,1	120,5
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	5 032,2	113,1
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	60,5	70,4
Sabzavotlar va mevalar	691,3	5,6 m.
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	40,5	-
Tirik hayvonlar	97,0	33,0
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	67,6	-
Ichimliklar va tamaki	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1456,6	99,8
Probka va yog'och-taxtalar	217,4	111,8
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	167,7	140,2 m.
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	166,6	-
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	901,3	71,7
Tabiiy kauchuk	3,3	41,1
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	0,3	-
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	153,6	131,4
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	148,7	127,2
Ko'mir, koks va briketlar	4,9	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	330,3	22,2
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	328,3	22,3
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	2,0	11,6
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	15 510,6	169,8
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	217,7	10,9 m.
Birlamchi shakldagi plastmassalar	2 717,4	156,9
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	9 429,3	2,4 m.
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	292,3	57,0
Noorganik kimyo moddalari	1 624,9	163,5
Organik kimyo moddalari	612,5	163,5
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	488,0	36,8
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	128,5	66,3


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	20 904,0	87,4
Cho'yan va po'lat	2 334,1	92,7
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	2 152,5	94,3
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	717,6	3,3 m.
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	1 786,0	32,7
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	74,0	84,1
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	459,8	184,2
Rangli metallar	13 379,3	102,4
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	0,5	1,2
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	0,2	-
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	30 788,0	84,0
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	3 469,4	58,2
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	8 963,8	49,7
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	8 166,3	159,8
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	2 927,7	68,0
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	3 545,5	2,1 m.
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	2 261,4	23,9 m.
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	44,7	5,7
Metallarni qayta ishlash mashinalari	1 409,2	2,2 m.
Turli xil tayyor buyumlar	2 779,8	91,3
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	2 228,5	161,0
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	433,0	4,0 m.
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	93,7	6,4
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	10,5	11,8
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	0,4	3,1 m.
Poyabzal	11,9	-
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	1,8	5,3 m.
Xizmatlar	1 083,2	35,1
Transport xizmatlari	797,4	30,8
Safarlar (turizm xizmatlari)	12,7	3,2 m.
Boshqa xizmatlar	273,1	59,7

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

2024- yil yanvar-fevral oylari natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 37,8 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 12,4 % ga ko'paydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-fevral, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-fevral oylarida Navoiy viloyati 40 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya, Qozog'iston, Germaniya, Turkiya, Yaponiya va Koreya Respublikasi) jami importning 85,8 % ini tashkil qiladi, bu 67,8 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



NAVOIY VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-fevral, % da)






NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-fevral)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdagi o'rni
	2023 y.	2024 y.		
Xitoy Xalq Respublikasi	23 248,5	23 865,9	102,7	1
Rossiya	15 245,0	22 319,7	146,4	2
Qozog'iston	10 864,0	7 098,6	65,3	3
Germaniya	1 270,9	5 169,2	4,1 m.	4
Turkiya	6 808,3	3 767,6	55,3	5
Yaponiya	1 223,2	3 148,7	2,6 m.	6
Koreya Respublikasi	2 250,2	2 387,9	106,1	7
Latviya	14,1	1 505,0	106,8 m.	8
Italiya	69,2	1 474,1	21,3 m.	9
Daniya	1 002,5	1 297,3	129,4	10
Estoniya	1 850,0	1 148,8	62,1	11
Chexiya	2 270,3	864,5	38,1	12
Shveysariya	51,8	688,0	13,3 m.	13
Hindiston	3 595,6	670,2	18,6	14
Eron	332,5	648,4	195,0	15
Litva	2 707,5	415,0	15,3	16
Singapur	-	323,9	0,0	17
Turkmaniston	17,3	302,2	17,5 m.	18
Fransiya	236,9	283,4	119,6	19
Gonkong	447,9	233,6	52,1	20



NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2024- yil yanvar-fevral, ming AQSH doll.)



2023- y.


2024- y.

Viloyatning importi tarkibida eng yuqori ulushni Karmana tumani 51,0 % bilan 40 258,3 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa G'ozg'on shahri 0,04 % bilan 28,3 ming AQSH dollarini tashkil etdi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2024- yil yanvar-fevral, ming AQSH dollarida)




2024- yil yanvar-fevral oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 1 083,2 ming AQSH dollarini yoki jami import hajmining 1,4 % ini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 35,1 % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (73,6 %), safarlar (turizm xizmatlari) (1,2 %) va boshqa xizmatlar (25,2 %) dan iborat bo'ldi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024- yil yanvar-fevral oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 20 904,0 ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 87,4 % ni tashkil etdi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 26,5 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-fevral)

13 687,6 ming AQSH doll.
ulushi – 65,5 %

 Rossiya

3 113,0 ming AQSH doll.
ulushi – 14,9 %

 Xitoy Xalq
Respublikasi

1 289,6 ming AQSH doll.
ulushi – 6,2 %

 Latviya

1 237,7 ming AQSH doll.
ulushi – 5,9 %

 Qozog'iston

670,7 ming AQSH doll.
ulushi – 3,2 %

 Germaniya



2024- yil yanvar-fevral oylarida sanoat mahsulotlari importi hajmining Navoiy viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi Rossiya 13 687,6 ming AQSH dollari (65,5 %), Xitoy Xalq Respublikasi 3 113,0 ming AQSH dollari (14,9 %) va Latviya 1 289,6 ming AQSH dollari (6,2 %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.